

O'zbekistondagi Ekologik Muammodan Biri: Orol Muommosi

*Jo'rayeva Farangiz Bahrom qizi*¹

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi mavjud ekologik muommolar va bu muommolarni yechishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadbirlar haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ekologik xavfsizlik, qurultoy, xalqaro fondi, xalqaro konferensiya, Atrof-muhit, ekologik fojia.

I. Kirish

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi, bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik fakolatlarga olib keladi. Prezidentimiz I.K. Karimov ta'kidlaganlaridek, biz bu xavfni ancha kech, 70-yillarning boshlaridagina anglab boshladik. Insoniyat qanday xavf qarshisida turganligini, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol ko'zga tashlandi. Insoniyatning tabiat qonuniyatlarini hisobga olmay, jadal yuritilgan xo'jalik faoliyati, yer yuzida tuproq nurashi, o'rmonlardan mahrum bo'lish, baliqlarning haddan ko'p ovlanishi, tuzli yomg'irlar, atmosfera ifloslanishi, azon qatlami buzilishi va boshqa ekologik muommolarning kelib chiqishiga olib keldi[2]. Mutaxassislarining baholashlaricha, 2000-yilga kelib o'rmonlar egallab turgan maydon quruqlikning 1/6 qisminigina tashkil etadi, holbuki, 50-yillarda ular ¼ qismini egallagan edi. Jahon okeanining suvlari halokatli ravishda ifloslanayotgan, uning takroriy mahsuldorligi keskin pasaymoqda. Jadal rivojlanayotgan urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning asosan iqlimiga katta salbiy ta'sir o'tkazmoqda[1]. Hozirgi vaqtda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zahiralardan xo'jalik maqsadlarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi yildan-yilga o'sib borib, ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilyapti. Bu esa o'rmonlar qisqarishiga chul-sahrolarning bostirib kelishiga, tuproqning buzilishiga, atmosferaning yuqorida joylashgan azon to'sig'i kamayib ketishiga, yer havosining o'rta harorati ortib borishga va boshqa holatlarga sabab bo'moqda. Ekologiya hozir zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kungi ahvoli va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liq. Bu kabi muammolarni hal etish faqat bir davlat doirasida cheklanib qola olmaydi. Ularni butun sayyoramiz ko'lamida hal qilish zarur.

I. Usullar

Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli Orolbo'yi mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi ekologik fojia atrofida baholanadi. Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlari 1993-yil mart oyida Qurultoyda bo'lib o'tgan uchrashuvi ana shu muammolarni hal qilish yo'lidagi turtki bo'ldi. Bu uchrashuvda Orol dengizi tangligini hal etish yuzasidan birgalikda harakat qilish to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi muommolari bo'yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi – Ijroiya qo'mitasi, shuningdek, Orolni qutqarish xalqaro fondi tashkil etildi. Bu masalani BMT, Jahon banki, boshqa xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar ham jalb etilishi lozimligi ta'kidlandi. Markaziy Osiyo Respublikalari davlat boshliqlarining 1994-yil yanvarida Nukus shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi uchrashuvida Orol dengizi havzasidagi ekologiya vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin 3-5

¹ Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi



yilga muljallangan, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq harakatlar dasturi tasdiqlandi. 1994-yil mart oyida Turkmanistonning Taixovuz viloyatida boʻlgan uchinchi uchrashuvda Davlatlaro kengashning ushbu dasturining bajarilishi haqidagi hisoboti tinglandi. Orolni qutqarish, mintaqalar ekologik holatini yaxshilash, aholining sogʻligʻini muhofazalash, xalqaro moliyaviy tuzilmalar hamkorligida Orol boʻyi aholisini toza ichimlik suvi bilan taʼminlash, turmush tarzini yaxshilash borasida bir qarorga kelindi. Oʻzbekiston hukumati, shaxsan Prezidentimiz I. Karimovning Orol dengizi fojiasiga jahon hamjamiyatining diqqatini jalb etish, mintaqadagi ekologik halokat oqibatlariga xalqaro eʼtiborni qaratish yoʻlidagi say-harakatlari oʻlaroq, 1995-yilda Nukusda Birlashgan Millatlar Tashkiloti xomiyligida Orol dengizi havzasi mavzusida yirik xalqaro Konferensiya, EXXT bilan hamkorlikda shu mavzuda qator anjumanlar oʻtkazilib, xalqaro moliyaviy tuzilmalar hamkorligida Orolboʻyi aholisini toza ichimlik suvi bilan taʼminlash boʻyicha amaliy ishlarga kiritilishini katta ishlarning boshlanishi boʻldi. Nihoyat, 1997-yilning fevral oyida Olmaota shahrida Oʻrta Osiyo davlatlari rahbarlarinig Orol dengizi hazasi muammolariga bagʻishlangan oliy darajadagi uchrashuvi mintaqada ekologiya holatini yaxshilash, Orol fojiasining oldini olish Orolboʻyi aholisining salomatligini yaxshilash. Bu hayotiy masalani hal etishda jahon jamoatchiligini rivojlangan davlatlar, BMT va Jahon banki eʼtiborini kuchaytirish, Jahon banki bilan hamkorlikda tayyorlangan Orolboʻyi ekologik vaziyatini sogʻlomlashtirish, yaqin kelajakka muljallangan ustivor yoʻnalishlar dasturlari koʻrib chiqildi. Shuningdek, Orol dengizini qutqarish xalqaro jamgʻarmasining boshqaruv tizimi, uning faoliyati va Prezidentini saylash, jamgʻarma badallarini toʻlash bilan bogʻliq masalalar koʻrildi. Yana bir muhim jihati Olmaota deklaratsiyasi qabul qilindi. Besh davlat rahbarlari imzolagan ushbu deklaratsiyada 1998-yil BMT xomiyligida Oʻrta Osiyoda atrof-muhitni muhofaza qilish yoʻli hamda mintaqamizni yadrosiz xudud deb eʼlon qilinishi taʼkidlandi. «...Barchamizning umumiy vazifamiz tabiatning nochor ahvolga tushib qolgan muvozanatini barqarorlashtirishdan, insonning yashashi va faoliyat koʻrsatishi uchun maqbul shart-sharoit yaratib berishdan iborat», - deydi Prezidentimiz I.A.Karimov[4]. Ekologik muammolar jahondagi koʻpgina mamlakatlar uchun keyingi yillarda birinchi darajali masala boʻlib qoldi. Oʻzbekiston Respublikasi Islom Karimov YuNESKO ning ijroiya kengashida soʻzlagan nutqida Oʻrta Osiyoning ekologik halokat markazida qolganligi, uning ayanchli oqibatlarini 60 million kishi bevosita oʻz boshidan kechirayotganligini alohida taʼkidladi. Atrof-muhit va strategik xavfsizlik bir-biriga taʼsir oʻtkazishiga Orol va Orolboʻyi taqdiri xususidagi tashvishli soʻzlari butun dunyo jamoatchiligi oʻrtasida kuchli aks-sado bergani bejiz emas. 1997-yil 15-oktyabrda Toshkentda «Orol halokati XX asrning sayyoraviy fojiasi» mavzusida Orol dengizi havzasi muammolari boʻyicha xalqaro uchrashuv boʻlib oʻtdi[5]. Unda Orolni qutqarish xalqaro jamgʻarmasi rahbarlari, mamlakatimizda faoliyat koʻrsatayotgan diplomatiya korpusi, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini, shuningdek, Yevropa ittifoqi, YuNESKO, YuNISEF, Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti, koʻplab Xalqaro banklar, muassasalar hamda AQSh, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Yaponiya, Shvesiya, Misr, Frantsiya, Germaniya, Avstriya, Kanada, Italiya singari xorijiy davlatlarning vakillari ishtirok etishdi. Uchrashuvda Orol dengizi havzasida yuzaga kelgan vaziyat faqatgina shu mintaqada davlatlari miqyosida emas, balki jahon miqyosidagi katta muammo ekani, uni hal etish koʻplab davlatlar va xalqaro tashkilotlarning hamjihatlikda ish olib borishini talab qilayotganligi qayd etildi. Jahon banki vakili X. Molinsus bugungi kunda Orol muammolari barcha tahliliy ishlar nihoyasiga etganligini aytib, endigi vazifa ularning natijalarini joylarda qoʻllashdan iborat ekanligini taʼkidladi[6].

II. Natija

Ekologiyaga solinayotgan xavf Oʻzbekiston uchun, umuman butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun naqadar yuqori ekanligini hisobga olgan holda hukumat va davlat atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga juda katta eʼtibor bermoqda. Atrofmuhitni muhofaza qilishni taʼminlashga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi. Masalan, Ekologik ekspertiza toʻgʻrisida, chiqindilar toʻgʻrisida, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida va bir qancha qonunlar qabul qilindi[3]. Oʻzbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish borasidagi milliy tadbirlari boshqa davlatlar va Xalqaro tashkilotlar bilan keng va har tomonlama hamkorlik qilish ishi bilan qoʻshib olib borilmoqda. Atrofmuhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi koʻplab xilma-xil xalqaro shartnomalar va



bitimlar tuzildi. O'zbekiston MDH davlat boshliqlarining 1992-yil 8- fevralda imzolangan Bitimiga muvofiq tuzilgan MDH davlatlari Davlatlararo Ekologiya Kengashining to'la huquqli a'zosi MDH davlatlarining ana shu Ekologiya Kengashi doirasidagi hamkorligi a'zo davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydi. Demak, O'zbekistonda mavjud bo'lgan ekologiya muammolar shulardan iboratdir. Agar biz O'zbekiston Respublikasining bevosita Xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, shuni aytib o'tish kerakki, ushbu sohada xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri bu davlatlarning o'zaro hamkorlik qilish majburiyatidir. Shunday ekan, O'zbekiston ham xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida ushbu tamoyilga assoslanib xalqaro munosabatlarda ishtirok etib kelmoqda. 1992-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar tashkilotiga rasmiy darajada a'zo bo'lib kirdi. Demak, BMT doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish munosabatlarida ishtirok etish uchun barcha yo'llar ochildi. O'zbekiston Respublikasi BMT ga a'zo bo'lgandan keyin sekin-asta xalqaro ixtisoslashgan boshqa tashkilotlarga ham qabul kilina boshladi. O'zbekiston Respublikasi 1993-yilning 22-yanvarda Jahon meteorologiya Tashkiloti a'ziligiga qabul qilindi. O'zbekiston gidrometeorologiya xizmati oldida turgan o'ta muhim vazifa meteorologiya, iqlimiy va gidrologiya jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'minlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasining Bosh gidrometeorologiya Markazi Jahon metyerologiya tashkilotining ishida faol ishtirok etmoqda. Shu sohada O'zbekiston BMT ning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Ramali Konvensiyasi va Biologik turli tumanlik bo'yicha Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Shuningdek, bu tashkilot bilan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hozirda katta amaliy ishlar qilyapti[7].

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotiga O'zbekiston 1992-yil 22- maydan boshlab a'zo bo'lib kirgan. Ta'lim, ilm-fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT ga (YuNESKO) O.,zbekiston 1993-yil 29-oktyabrda a'zo bo'lib kirdi. Davlatimiz ushbu tashkilot bilan juda katta ommaviy ishlarni qilmoqda, jumladan, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Amir Temur yubileyleri YuNESKO doirasida nishonlanmoqda. Ayni vaqtda ekologiya masalalariga doir hamkorlik ham olib borilmoqda. Atom Energiyasi Xalqaro Agentligi (MAGATE) ga davlatimiz 1994- yilning 15 yanvarida a'zo bo'lgan. Bizga ma'lumki, MAGATE ham atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelyapti, bunda davlatimiz ham faol ishtirok etmoqda. Shuni ham aytib o'tish kerakki, O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bevosita shug'ullanadigan jamg'armalar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Shulardan biri «Ekosan» Xalqaro jamg'armasidir. Bu jamg'arma 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan bo'lib, hozirgi kunda 3 milliondan ortiq a'zosi, 34 ta mamlakatda 63 ta bo'limlari va vakolatxonalariga ega. «Ekosan» – grekcha «Ekos» va «Sanos», ya'ni ekologiya va salomatlik so'zlarning bosh bo'g'inlari yig'indisidan iborat bo'lgan holda tashkilot nomini anglatdi. Xalqaro «Ekosan» jamg'armasi hozirda «Dan-Ekosan», «Yunisef-Ekosan», «Aspera», «TransEkoz», «Ekoturizm», «Ayol, ekologiya va salomatlik», «Oila, ekologiya va salomatlik», «SES-EKOSAN», «Ekologiya va salomatlik kunlari», «Ma'naviyat, ekologiya va salomatlik» kabi dastur va loyihalarni amalga oshirmoqda. Ushbu dasturlardan biri «Dan-Ekosan» bo'lib, u O'zbekiston hududida 1996-yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan avtotransport holatining ekologik talablarga javob berishini nazorat qilish bo'yicha ko'rik-tanlov hisoblanadi. Uni tashkilotchilari: Asosan, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi Davlat avtomobil nazorati Bosh boshqarmasi hamda O'zavtotransdir. «Ekosan» xalqaro jamg'armasi atrof-muhitni muhofaza qilishga doir ko'pgina Konferensiya va muhofaza majlislari o'tkazib kelishmoqda. Bu tashkilot «Atrof-muhit va salomatlik», «Ekoturizm va Buyuk ipak yo'li», «Huquq, ekologiya va salomatlik» va boshqa shunday Konferensiyalar o'tkazdi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda «Navro'z, ekologiya va salomatlik» kabi xalqaro uchrashuvlar o'tkazdi[8].

III. Munozara/Xulosa

Orol dengizining qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo'lib qoldi. Markaziy Osiyoning butun hududi bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal suratda ko'rish aholi ko'plab punktlariga suv berish barobaridan keng ko'lamdagi fojia – Orol halok bo'lishning sababiga ham aylandi. Hozirgi vaqtda halq xo'jaligida Orol dengizi havzasining barcha suv zahiralardan to'la-to'kis foydalanilmoqda. Mintaqaning yana bir muammosi suvni muhofaza qilish va tejash tadbirlari majmuini amalga oshirish zaruriyati bilan bog'liqdir. O'zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtai



nazaridan qaraganda, suv zahiralarning, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchinligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умарахунов И. М. Республика Узбекистан и международное договорное право. – Ст. 315.
2. Karimov I.A. O,,zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka taxdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T., O,,zbekiston, 1997. –B.113.
3. <https://lex.uz/ru/docs/-3029502>
4. Karimov I.A. Orol dengizi havzasi bo'yicha xalqaro uchrashuv qatnashchilariga yo'llagan tabrigidan. Xalq so'zi. (1997. 15 oktyabr)
5. Mirzayev T O,,zbekistonda ekologik muammolar va prokurorlik nazorati. -T., 1999. –B. 39
6. 1997-yil 15-oktyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan «Orol holati – XX asrning sayyoraviy fojiasi» mavzusidagi Orol dengizi havzasi muammolari bo'yicha xalqaro uchrashuv ma'lumotlaridan.
7. Tuzmuxamedov R.A., Hakimov R.T. Xalqaro huquq asoslari. -T., 1998. –B.89.
8. O.Narzullaev. Xalqaro ekologiya huquqi,T.,2009,79-bet

